

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

ISSN 2181-3639
Uzbekistan

CiteFactor
Academic Scientific Journals

Scientific Journal
Impact Factor
TOGETHER WE REACH THE GOAL

CERTIFICATE OF PUBLICATION

Yunusova Sitora Sherdil qizi

FOR PUBLICATION OF PAPER ENTITLED

RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA
KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH METODLARI

In Volume 4, issue 7 of Results of National Scientific Research Journal 2025



27.08.2025
DATE ISSUED



[HTTPS://ACADEMICRESEARCH.RU/INDEX.PHP/INRNSR/INDEX](https://academicresearch.ru/index.php/inrnsl/index)



RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Yunusova Sitora Sherdil qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti o'qituvchisi

E-mail address: sitorayunusova481@gmail.com

***Anotatsiya:** Mazkur maqolada raqamli ta'lim texnologiyalarining ingliz tilini o'qitish jarayonida qo'llanishi va ular orqali talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida turli interfaol platformalar, multimediya vositalari va mobil ilovalardan foydalanish metodlari tahlil qilingan. Shuningdek, ingliz tili darslarida talabalarining og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning samaradorligi bo'yicha ilmiy qarashlar, ilg'or xorijiy tajribalar va muallifning amaliy tavsiyalari keltirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Raqamli ta'lim texnologiyalari, ingliz tili o'qitish metodikasi, kommunikativ kompetensiya, interfaol metodlar, multimediya, onlayn platformalar, raqamli pedagogika.*

***Аннотация:** В данной статье рассматривается применение цифровых образовательных технологий в процессе обучения английскому языку и возможности формирования коммуникативной компетентности учащихся с их помощью. На основе современных педагогических подходов анализируются методики использования различных интерактивных платформ, мультимедийных средств и мобильных приложений. Представлены научные взгляды на эффективность цифровых технологий в развитии навыков устной и письменной речи учащихся на уроках английского языка, передовой зарубежный опыт и практические рекомендации автора.*

***Ключевые слова:** Цифровые образовательные технологии, методика преподавания английского языка, коммуникативная компетентность,*

интерактивные методы, мультимедиа, онлайн-платформы, цифровая педагогика.

***Abstract:** This article discusses the use of digital educational technologies in the process of teaching English and the possibilities of forming communicative competence in students through them. Based on modern pedagogical approaches, methods of using various interactive platforms, multimedia tools and mobile applications are analyzed. Also, scientific views on the effectiveness of digital technologies in developing students' oral and written communication skills in English lessons, advanced foreign experiences and the author's practical recommendations are presented.*

***Key words:** Digital educational technologies, English language teaching methodology, communicative competence, interactive methods, multimedia, online platforms, digital pedagogy.*

Kirish

XXI asrda ingliz tili ta'limida raqamli texnologiyalar muhim omil sifatida qaralmoqda. Dunyo tajribasida (Prensky, 2001; Warschauer, 2010; Kukulska-Hulme, 2020) "raqamli avlod" tushunchasi asosida o'quvchilarning ehtiyojlariga mos interfaol yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Globalashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida ingliz tilini o'qitish metodikasiga yangicha yondashuvlar talab qilinmoqda. Chunki ingliz tili nafaqat ilmiy-texnik axborotlarni o'zlashtirish vositasi, balki xalqaro hamkorlik, ta'lim va kasbiy muloqotning asosiy tili sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois bugungi kunda ta'lim jarayonida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda.

So'nggi yillarda raqamli ta'lim texnologiyalari jadal rivojlanib, ular ta'lim jarayoniga keng tatbiq qilinmoqda. Virtual sinflar, onlayn platformalar, mobil ilovalar va multimedia vositalari o'quvchilarda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodiy faoliyatni rag'batlantirish va real kommunikativ vaziyatlarga

yaqinlashtirish imkonini bermoqda. Bu esa an'anaviy metodlardan farqli o'laroq, ta'lim oluvchilarning aktiv ishtirokchi sifatida bilim olish jarayoniga qo'shilishiga sharoit yaratadi.

Pedagogik tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarni ingliz tilini o'qitishga integratsiya qilish turli jihatlarida o'rganilgan. Jumladan, bir qator xorijiy va mahalliy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarda nutq tezligi, talaffuz aniqligi va muloqotga kirishish motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi. Biroq ushbu tadqiqotlarning aksariyatida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonida didaktik model va metodik yondashuvlarni kompleks qo'llash masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari asosida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish metodlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi, mavjud yondashuvlar qayta ko'rib chiqiladi va mualliflik takliflari ishlab chiqiladi. Mazkur mavzu pedagogika sohasi uchun dolzarb bo'lib, kelgusida ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston olimlari (A. Abduqodirov, B. Yo'ldoshev, S. Sayfurov va boshqalar) ham so'nggi yillarda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Ingliz tilini o'qitishda elektron resurslar, onlayn simulyatorlar va virtual muloqot muhitlarining qo'llanilishi talabalarni mustaqil fikrlashga, kommunikativ vaziyatlarda erkin muloqot qilishga tayyorlaydi. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda ko'proq texnologik imkoniyatlarga e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, kommunikativ kompetensiyaning bosqichma-bosqich rivojlantirish metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Mazkur tadqiqotning asosiy g'oyasi shundan iboratki, ingliz tilini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish faqatgina texnik vositalarni qo'llash emas, balki ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta tashkil

etishni ham talab etadi. Shuning uchun mualliflik yondashuvi bir necha metodik va amaliy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Kommunikativ kompetensiyani bosqichma-bosqich shakllantirish zaruriyati.

O‘quvchilarda ingliz tilida muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish uchun dars jarayoni uch asosiy bosqichda tashkil qilinishi lozim:

Reproduktiv bosqich – talabalar oddiy so‘z va jumalarni qaytarish, eslab qolish hamda tayyor model asosida nutqiy faoliyatni amalga oshirishadi. Bu bosqichda interaktiv testlar, elektron lug‘atlar va audio-matnlardan foydalanish samarali.

Produktiv bosqich – talabalardan erkin gapirish, fikr bildirish, suhbatda ishtirok etish talab qilinadi. Bu jarayonda virtual sinf platformalari (Moodle, Google Classroom, MS Teams) orqali yozma topshiriqlar almashish, onlayn forumlarda muloqot qilish samarali hisoblanadi.

Ijodiy-kommunikativ bosqich – talabalar real hayotiy vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanish ko‘nikmalarini egallaydi. Bu bosqichda rol o‘yinlari, interaktiv simulyatsiyalar, video-podkastlar tayyorlash talabani mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantiradi.

2. Gamifikatsiya va multimodal yondashuvlardan foydalanish.

Gamifikatsiya elementlari (Kahoot, Quizizz, Duolingo kabi ilovalar) dars jarayoniga raqobat va qiziqishni olib kiradi. Ular orqali talabalar so‘z boyligini kengaytirish, tezkor javob berish va muloqotda faol bo‘lishga undaladi. Multimodal topshiriqlar – ya’ni matn, audio, video, infografika va simulyatsiya elementlarini birlashtirgan vazifalar esa talabalarda ko‘pkanalli idrokni shakllantirib, ularni turli kommunikativ vaziyatlarga tayyorlaydi.

3. O‘qituvchining raqamli pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish.

Muallifning nazarida, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish jarayonida o'qituvchi faqatgina bilim yetkazuvchi emas, balki fasilitator, moderator va motivator sifatida faoliyat olib borishi lozim. Buning uchun:

- o'qituvchilar uchun maxsus metodik qo'llanmalar ishlab chiqilishi;
- ularning raqamli pedagogik savodxonligini oshirishga qaratilgan malaka oshirish kurslari tashkil etilishi;
- o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladigan topshiriqlarda kompetensiyani baholash mezonlari aniq ko'rsatilishi zarur.

4. Baholashning raqamli mexanizmlarini joriy etish.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish samaradorligini aniqlash uchun an'anaviy yozma testlar yetarli emas. Shu sababdan muallif sifatida quyidagilarni taklif etaman:

Talabalarning onlayn suhbatlar, forumlar va bloglardagi faoliyati reyting asosida baholanishi;

Nutq tahlili dasturlari (Speechling, ELSA Speak) yordamida talaffuz, grammatik to'g'rilik va nutq ravonligi o'lchab borilishi;

Baholash jarayoni individual elektron portfel asosida amalga oshirilishi, bunda talabaning yozma va og'zaki ishlari muntazam yig'ilib borishi.

5. Ilmiy asoslangan metodik model ishlab chiqish.

Mazkur yondashuv natijasida ingliz tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun quyidagi metodik modelni taklif qilamiz:

Maqsad – talabalarda ingliz tilidan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;

Vositalar – raqamli ta'lim platformalari, multimediya resurslari, mobil ilovalar;

Metodlar – gamifikatsiya, interfaol mashqlar, rolli o'yinlar, virtual muloqot;

Natijalar – og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalari, mustaqil fikrlash, jamoada ishlash qobiliyatining rivojlanishi.

Xulosa

Maqolada raqamli ta'lim texnologiyalari asosida ingliz tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning metodik imkoniyatlari tahlil qilindi va mualliflik takliflari ilgari surildi. Tadqiqot natijalari quyidagilardan iborat:

1. Kommunikativ kompetensiya bosqichma-bosqich shakllantirilishi zarur. Raqamli vositalar yordamida reproduktivdan ijodiy nutq faoliyatigacha izchil rivojlantirish samarali hisoblanadi.

2. Gamifikatsiya va multimediya resurslari motivatsiyani oshiradi hamda o'quvchilarni kommunikativ vaziyatlarda faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

3. O'qituvchining raqamli pedagogik kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega; u bilim beruvchi emas, balki fasilitator va motivator sifatida namoyon bo'lishi lozim.

4. Baholash tizimi transformatsiyalashishi muhim: elektron portfel, onlayn forumlar va nutq tahlil dasturlari kompetensiyani aniqroq o'lchash imkonini beradi.

5. Metodik model ishlab chiqilishi ta'lim samaradorligini oshiradi hamda talabalarni global kommunikatsion muhitda faol bo'lishga tayyorlaydi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalar asosidagi kommunikativ yondashuv til o'rgatish sifatini oshiradi va zamonaviy ta'limning kompetensiyaviy paradigmasiga mos keladi. Bu esa raqobatbardosh, erkin fikrlovchi va samarali muloqot qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prensky M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. On the Horizon.
2. Warschauer M. (2010). Digital learning in second language acquisition. Language Teaching.
3. Kukulska-Hulme A. (2020). Mobile-assisted language learning. ReCALL Journal.
4. Abduqodirov A. A., Yo'ldoshev B. (2018). Raqamli ta'lim texnologiyalari. Toshkent.

5. Sayfurov S. (2021). Zamonaviy ta'lim metodlari va raqamli pedagogika.
Toshkent.